

SATIRIK NASIRDA QO'LLANILGAN MAQOLLARNING ESTETIK FUNKSIYASI*Jaqsilqova Albina Saǵınbaevna,**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Maqolada naqil-maqollarning satirik asarlarda qollanilish uslubi, satirik xarakter, obraz yaratishda naqil-maqollarning estetik xizmati ifodalananadi. Qoraqalpoq adabiyotida satirik yazuvchilar S.Embergenov, G.Tajetdinova, I.Qurbanbaevlarning satirik asarlarida naqil-maqollarning qollanish xusussiyatlari so'z etiladi.

Tayanish so'zler: satira, naqil-maqol, xarakter, obraz, hikoya.

ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ПОСЛОВИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В САТИРИЧЕСКОЙ ПРОЗЕ*Джаксилькова Альбина Сайынбаевна,**Докторант Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза*

Аннотация: В статье описывается манера использования пословиц в сатирических произведениях, их сатирический характер, эстетическое служение в создании образа. В литературе Каракалпак особенности пословиц упоминаются в сатирических произведениях сатириков С.Ембергенова, Г.Тажетдиновой, И.Курбанбаева.

Ключевые слова: сатира, пословица, персонаж, образ, рассказ.

AESTHETIC FUNCTION OF PROVERBS USED IN SATIRICAL PROSE*Jaksilykova Albina Saǵynbaevna,**Doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Annotation: The article describes the manner of using proverbs in satirical works, their satirical nature, aesthetic service in creating an image. In the literature of Karakalpak, the features of proverbs are mentioned in the satirical works of satirists S.Embergenov, G.Tazhetdinova, I.Kurbanbaev.

Key words: satire, proverb, character, image, story.

Satira obyektini ayovsiz kulgi vositasi orqali ifodalaydi. U voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi bema'ni, asossiz, noto'g'ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi.

Satirik asarlarda naqil-maqollar, aforizimlar va idomalardan foydalanish alohida diqqatga sazovardir. Chunki ular xalq ommasining aql-idroki, Donaligi ifodasidir. Xalq donishmadligining bu yorqin ajoyib manbalari bizga xalq hayoti, tafakkuri, urf-odatlariga oid, xalqning g'oyaviy – estetik, siyosiy – ijtimoiy qarashlari haqida bitmas tunganmas materiallar beradi.[1.75]

Naqil-maqollar xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obratzli va obratzsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunga ega, fikrni ishonchli bayon qilishda o'tkir vosita hisoblanadi. Shu sabab har bitta inson gapini naqil so'zlar bilan ishlatishni hoqlaydi. Shu xususiyatlari bilan naqil-maqollar xalq pedagogikasining boshqa usillaridan o'ziga xoslanip turadi. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan.

Satirik badiiy asarlarda naqil - maqollarning qollanishi asarning mazmundorligini ortdiradi. Qoraqalpoq satirik yozuvchisi S. Embergenovning satirik asarlarida naqil so'zlarunimdon qo'llanilgan. Uning "Sırımız ashkara bolmasın" [3. 6] hikoyasini "Qalawin tapsań qar jawar" degan maqol bilan boshlanadi. Bu maqolning mohiyati har qanday ishni chevarlik menen ro'yogha oshira olsang hammasi o'rni bilan bo'ladi. Yazuvchibu maqolni asar mavzusidako'rastilganidek

qahramonlar o'zicha sirli ishlar ishlab yuradi. Yani birovning narsani yeish, qiyonat qilish kabi muammolar so'z etiladi. O'g'irlilik qilib yurgan odamning ichida albatta iktirob bo'ladi. Lekin sirini ochmaslik uchun ko'ngillarini taskin qilish maqsadida "qalawin tapsan qar jawar" deb ishlagan o'g'irligimiz bilinmay qolar degan fikrga keladi. Yazuvchi yengil hayot izidan yuruvchilarni qoralaydilar.

S. Embergerov asarlar yozish stilining xusussiyati u ko'pincha hikoyalarining kirishmasida naqil-maqollar bilan boshlaydi. Yazuvshi "Hayalimni aqili" [2. 31] asari "Hayaldiń shashi uzin, aqili kelte" degan maqoli bilan boshlaydi. Muallifning bu maqolni misol qilib keltirishining o'zi, mazmun xotin-qizlarga aloqador ekanligin ko'rsatadi. Asarning qahramoni o'zining to'g'ri yo'lini ayolining maslahati bilan qaltis tamonga yol oladi. Bemorlarning kasalligidan foydalanib o'zlarining hamyonini to'ldirishi, ayolining hiylali gaplariga ishonib oqirida afsuslanib qolish holati so'z etiladi. Yozuvchi turmushtagi birovning qora mehnati bilan topgan pulidan foyda ko'zlash maqsadida yurgan insonlarni ham da, o'z aqli bilan emas ayolining chizgan chizig'i bilan yurodigan, kasibiga qiyonat qiluvchi erkaklarini o'tkir, ashshiq so'zleri bilan zarba beradi.

Satirkning "Adamlarda gáp kóp" hikoyasida "Tawdi tasti jel buzar, adamzatti sóz buzar" maqolini badiiy asar yakunida qo'llanadi. Sababi asarning mazmuni yakunida keltiritgan maqol bilan mujassamlanadi. Qishloq odamlari orasidagi piching so'zlar, arzimagan narsalarni ham kata narsadek ko'rsatishi, insonlarxarakteridagi yoqimsiz hislatlarni qag'ozga oramastan dangal aytadi. Muallifning asarlarida naqil-maqollarni keltirish orqali boshli bayonlaydigan obyektisi odam, odamning umir yo'li, jamiyatagi kelishmovchiliklar, shunga moslangan xulq-atvorining me'yorlarini so'z etadi.

Yozuvchi G.Tajetdinovani satirk hikoyalarida ham naqil-maqollar unimli qo'llanilgan. Uning badiiy asarlaridagi naqil so'zlar yoshlarni erlikke, jasoratga, hunarli, bilimli -ilmi bo'lishga shaqiradi va odam bo'yidagi kamshiliklarni naqil so'zlar bilan yengil qilib yetkazishga harakat qiladi. Masalan . "Altın baslı hayaldan baqa başlı er artıq", «Bolar bala bes jasinan belgili», «Mińdi taniǵansha, birdiń atin bil», «Jilamaǵan balaǵa emshek qayda», «Bolar bala on bes jasta baspan der, bolmas bala otizinda jaspan der», «Ónerli jas ash bolmas», «Bet júzdiń aynası» va boshqada naqil so'zлarni qo'llanadi. Yazuvchida bu naqil-maqollarni qollashda inson boyidagi yoqimsiz hislatlarni ashshiq fikrlari bilan bayon qiladi. "Altın baslı hayaldan baqa başlı er artıq" [3.28] naqilini qo'llanganda ayollik noziklikning og'ir mehnat bilan almashib ketganligini, bazi erkaklarning darajasining ayollar darajasidan pasayib ketkanini aytib o'tadi

Qoraqalpoq satirk asarlarining biri I.Qurbanbaevning "Tanıslar" asari hisoblanib, u asarining manoli va qiziqli bo'lishi uchun ko'piroqko'llangan. Yazuvchining naqil-maqollarni satirk asarida ko'proq tasvirlashi qahramonlarning bo'yiga singdirgan xarakterni qaharaman obrazi tilida astarli manoda yetkazishga harakat qilgan. Badiiy asar qahramonlarining biri Serkebayning nayranglari "Maldıń alası sırtında, adam alası ishinde" deb asarni endi o'qib boshlagan o'quvchining ko'ngilida qandaydir bir ishonishsizlik uyg'otadi. Voqealar rivojlangan sayin Serkebayning aniq yuzi ko'rina boshlaydi. Serkebay asarda salbiy qaharmon. U Laylining boshini aylantirib o'rgimchak to'riga tushiradi, bu o'rgimchak Halwashi obrazi. Bu obraz ham asarda salbiy qaharmon sifatida ifodalanadi.

Serkebay bilan Layli Halwashi qolidan qutilish uchun reja duzadi va bu rejada Erkabayni tanlaydi. Layli va Serkebay suhabatida Serkebay tilidan naqil so'zlar ko'piroq ko'rindi.

"Tandirdi qizǵanda jap" deb Serkebay bu maqolni keltirish orqali Laylining qalb kúyini eshitmastanyosh yigitlarga nigoh tashlash kerakligin bildirmoqshi bo'ladi.

"Bir qazıqtan qolın ketse, ekinshi qazıqtı mıqlap usla" [4.25] har qanday maqsad yo'lida ko'zlagan niyatidan qaytmasligin, maqsad qoydingmi albatta unga talpin, hattoki u yomon yo'l bo'lsa ham. Yazuvchi borliq vijdonsizliklar Serkebayning xarakterida yuklanganligin ifodalaydi.

Asardagi asosiy qahramonlarning biri Erkebay, Serkebayning qarmog'iga ilinadi. "Jetimni awzi asqa tiygende murni qanaydi" Erkebay ichidagi Láylini ko'rgandagi iliq his-tuyg'usinbildira olmaganiga Serkebayni ayibdor qilib shu maqolni qollanadi.

“Otqa bargan qatinniń otız awız sózi bar” [4.46] muallif bu maqolni keltirish bilan Serkebay o’zining yomon niyatini ishonchli chiqishi uchun Erkebayning ichidagi ishonsizlikni yoq qilishga harakat qiladi. Erkebayning Layliga bo’lgan sevgisining lovullap turgan vaqtida Gulzarning uning yonidan chiqmay gaplashishi, Laylini aynitib yubormasa ekan degan qo’rquinshi edilar. Asosan bu maqolning manosi xotin-qizlar orasidagipiching so’z aytib o’zining kelgandagi maqsadinipichinggap bilan unutib qoyishini aytib o’tkan.

“Shaqırǵan jerje bar, shaqırmaǵan jerje neń bar”, Erkebayning onasi Guljan Gulzar bilan suhbati orasida ushbu naqilnikeltirib o’tadi. Shu orqali o’zining boradigan manzilin yetkazadi. Gulzarga degan mehirli so’zlarini, uning bolasiga bo’lgan ixlosini payqash maqsadida kechqurun uyda bo’lmagan vaqtida suv olib kelib qo’yishini “qońısından qońsınıń qarzi ko’p” deb iliq so’zlar bayon qiladi.

Guljan Serkebayning ishlarini yoqtirmaydi, shunda Layli Serkebayni yoqlab “Kóp biydaydín ishinde júrmey me eken bir arpa”[4.56]debu ham tuzalib ketishidan umidli ekanligin ifoda etadi. Sababi inson adashadi, yiqiladi, keyin o’z yoliga tushib ketadi. “Erin biylegen kelin, tórin biyleydi” maqoli achchiq sarkazm bilan Laylige qarata aytildi.

Asarda Halwashı obrazi salbiy holatta bayon qilnadi. Farishta misoli bitta qiz yani Laylining hayotiningo’zgarib ketishiga, qalbining qora bo’yavlar bilan bo’yalishiga sababshi bo’lgan inson.

Erkebayning otasi bolsa mehnatkash, yolg’on so’zlarga ishonmaydigan inson. U og’lining boshini aylantirib yurgan Serkebayga ishonishni hoqlamaydi. Atamurat yolg’onchi Serkebayning asil niyatini anglab turgandi. Til bilan hamma narsani ishlay berish mumkin, lekin haqiqatlikka nigoh tashlash kerak deb qattiq gapiradi.[4.120]

“Aydi etek penen jawıp bolmaydi”deb Gulzar Serkebayni yolg’on ishlatmay yashashga, yolg’on narsaning qulı bo’lmaslikga chorlaydi.

“Qızdıń kózi qızılda”deb Laylining aldanib qolganligini, mal-dunyoning qulı bo’lib qolganligini bayon qiladi.

Yakunlab aytganda satirik badiiy asarlarda naqil-maqollarning qollanilishi iqchamlikni, ta’sirshanglikni ortdiradi.

Adabiyotlar:

1. Saidov O. Satira tili bilan. Tashkent, “O’zbekiston”, 1978.
2. Embergenov S. Adamlarda gáp kóp. Nókis, “Bilim”, 2013.
3. Tajetdinova G. Ádiraspan monshaqlari. Nókis, “Bilim”, 2016.
4. Qurbanbaev I. Tanıslar. Nókis, “Qaraqalpaqstan”, 1977.